

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

70

Andijon mashinasozlik instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası professorı,
iqtisod fanlari doktori Qiyomiddin
Muftaydinovning 70 yillik yubileyiga
bag‘ishlangan

**“ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY
ETISH HAMDA SOG‘LOM RAQOBAT MUHITINI
YARATISH ORQALI HUDUDLARDA
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI”**

mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman konferensiya **materiallari**

2023-yil 4-mart

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**“ERKIN BOZOR MEKANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA
SOG’LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI
HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO’PLAMI**
4 mart 2023 yil

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ И
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСЫ
Республиканская научно-практическая конференция на тему
**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
РЕГИОНАХ ПУТЕМ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ
СВОБОДНОГО РЫНКА И СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ
КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ»**
4 марта 2023 года

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ANDIJAN STATE UNIVERSITY AND
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE**

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND ABSTRACTS
Republican scientific and practical conference on the topic
**"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN
THE REGIONS BY IMPLEMENTING THE MECHANISMS OF A FREE
MARKET AND CREATING A HEALTHY COMPETITIVE
ENVIRONMENT"**
March 4, 2023

ANDIJON – 2023

ББК:97456(575)-МК5.03

УДК:33842.451.571

“Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislari to’plami. – Andijon.: AndMI, 2023. 1080 b.

Ma’sul muharrir: i.f.d., professor I.Yu.Umarov

Tahrir hay’ati: i.f.d., v.b. prof. U.A.Madraximov, i.f.n., dots. G.A.Zufarova, i.f.n., dots. U.I.Maraimova, i.f.f.d.(PhD) D.X.Sarimsakov, i.f.n., dots. Z.A.Isroilov, i.f.n., dots. (PhD) M.A. Axunov, i.f.f.d.(PhD) M.A.Karimov, katta o’qituvchilar: M.G’Abdullaev, Z. Teshaboyeva, G.Satiqulova

Kompyuter va dizayner boycha ma’sullar: S.A.Mirzaev, O.O.Mo’ydinov.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. N.I.Asqarov, i.f.n. dots. C.M.A’zamov.

Konferentsiya ilmiy maqolari va tezislari erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda soglom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog’liq ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o’qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar va magistrantlar va talabalar uchun mo’ljallangan.

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to’g’riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o’zlari ma’suldirlar.

©Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik instituti, 2023 yil.

М. Абдумуталибова	XIX-XX аср бошларида фарғона водийсидаги бозорлар, уларни иқтисодий муносабатлардаги ўрни ва аҳамияти	157
Z.S.Aripova, M.Soliyeva, N.Jaloliddinova	Zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etishning ba'zi masalalari	160
Г. Х.Сативалдиева, Д.Курбонова	Ижара муносабатларининг иқтисодий моҳияти ва уларни ривожлантиришнинг аҳамияти	163
Х.Кучкаров	Меҳмонхона хўжалигида инновация ва туризмни ривожлантириш омиллари	166
Н.Б.Джураева, Н.А.Камолова	Развитие экотуризма в Узбекистане	169
Г.Зуфарова, М.Аҳмадалиева	Хўжалик фаолиятида хизмат кўрсатиш фаолиятини такомиллаштириш	171
О.Н.Одилжонова	Iqtisodiyotni liberallashtirish O'zbekistonning muhim strategiyasi	173
А.Анафийаев, М.Раѳимжонова	Islomiy bank va O'zbekiston	176
О'.О.Шералиева, А.К.Сативалдиев	Korxonada smt ishlab chiqish va amalga oshirish	179
Х.Р.Хамроев	Psixologik xarakterdagi ehtiyojlar va turizm	182
К.Аҳмедов, Ш.Усмонжонов	Корxonанинг молиявий ҳолати ва банкротлик таҳлили	186
Н.Х. Муратов	Савдони ривожлантиришда рақамли маркетингни аҳамияти	188
А.Вохидов	Bozor iqtisodiyoti sharoitida barkamol avlodni shakllantirishda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati	190
С.К.Салаев, Б.У.Таджиев	Тадбиркорликни давлат тамонидан қўллаб-қувватлашни янгича йўналишлари	192
2-СЕКЦИЯ. SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI TA'MINLASH YO'LLARI		
А.Т.Мирзайев	Hududlarda turizm sohasini rivojlantirish va korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmini takomillashtirish	196
А.А.Азларова, Е.Р.Махмудова	Sog'lom raqobat muhitini ta'minlashda banklarning raqamli texnologiyalardan foydalanishining ahamiyati	200
Д.И.Остонақулов	Sog'lom raqobat muhitini ta'minlash	203
Г.Т.Тоҳирова	O'zbekiston respublikasida raqobat muhitini takomillashtirish yo'llari	205
В. З.Арзиматов	Biznesda raqobatni ta'minlash va rivojlantirishda davlatning roli	209
В.У.Шермухамедов	Banklararo raqobatning mohiyati va depozit siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati	211
Д. В. О'роқова, Н.А. Акрамова	Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikning mohiyati	214
Д.Д.Рустамова, И.Р.Шералиев	Raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish	218
М.М.Тург'унов	Oziq-ovqat sanoatida sog'lom raqobat muhitini ta'minlash	221

Tayyorgarlik bosqichida ishlab chiqilgan mahalliy hujjatlar to'plami akkreditatsiyadan o'tgan markazga o'tkaziladi. U inspeksiya komissiyasi tomonidan, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini amaliy tahlil qilishda tekshiriladi. Korxonada ishlab chiqilgan hujjatlarni tahlil qilish sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlaridan biridir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. ГОСТ Р ИСО /ТУ 16949-2009 Системы менеджмента качества. Особые требования по применению ИСО 9001:2008 в автомобильной промышленности и организациях, производящих соответствующие запасные части.

2. Русский регистр, 2013, №6. URL: <http://protect.gost.ru/document.aspx?control=7&id=174895>

3. Кудряшов А.В. Круглый стол. APQP: проблемы и опыт внедрения // Методы менеджмента качества. – 2012. – №6. URL: http://www.riastk.ru/mmqa/detail.php?ID=64676&sphrase_id=1717090

4. Кудряшов А.В., Исаев С.В., Панюков Д.И., Климовских Д.В., Хромова Т.А. Круглый стол «Проблемы и причины формального внедрения FMEA». Стандарты и качество, 2011, №11. URL: <http://www.riastk.ru/mmqa/detail.php?ID=54321>.

PSIXOLOGIK XARAKTERDAGI EHTIYOJLAR VA TURIZM

Xamroyev Xalim Rozokovich

Bux.DU “Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini professori, i.f.n.

Xalq faravonligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri ularning ehtiyojlarini to'laroq qondirishdir, bu mamlakatimiz hukumatining bosh maqsadlaridan biridir [1]. Umuman olganda har qanday odam o'z hayoti davomida qandaydir u yoki bu narsaga ehtiyoj sezadi. Bu birlamchi ehtiyoj o'zining fiziologik tabiatiga ko'ra, odatda tug'ma hisoblanadi. Bu – ovqatga, suvga, nafas olishga, uyquga, jinsiy aloqaga ehtiyojdir. Ulardan farqli ravishda ikkilamchi ehtiyoj psixologik xarakterga egadir. Agar atrofdagilar uning xizmatlarini, iste'dodini yoki jamoa a'zosi sifatida huquqini tan olmasa kishi kuyinadi. Birlamchi ehtiyoj genetik jihatdan qonda bor, ikkilamchisi esa tajriba orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar hech qachon bir xilda tajribaga ega bo'lishmaydi. Shu jihatdan ikkilamchi ehtiyoj ko'p darajada birinchisiga nisbatan yaqqol farqlanadi. Ehtiyojni bevosita ko'rib yoki o'lchab bo'lmaydi. Uning mavjudligini odamlar xulqi-atvoriga qarabgina bilish mumkin. Psixologlar odamlarni kuzata turishib, ehtiyoj harakat motivlari bo'lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelganlar. Agar nimadir etishmasligi kuchli sezilsa, odamda intiluvchanlik hissiyoti uyg'onadi. Bu bo'lajak xulqiy ehtiyoj maqsadga erishishiga butun diqqat-e'tiborni safarbar etadi. Bu holda maqsad hech narsa emas, zaruratni qondirish vositasi xolos, deb tushuniladi. Qo'yilgan maqsadga erishilganida esa ehtiyoj to'liq yoki qisman qondirilgan, yo qondirilmagan bo'ladi.

Motiv (sabab) va mukofatlanish psixologik dalil yoki bahona nazariyasida asosiy tushunchalar mohiyatini tashkil qiladi. Bu sohada ilmiy qarashlar yarim asrdan ko'proq oldin shakllana boshladi. Ammo «Odamlarni harakat qilishga nima majbur

etadi?», «Ular o‘z kuch va imkoniyatlarini ko‘zlangan maqsad sari qanday yo‘naltirishadi va taqsimlashadi?» degan bosh savollarga hozirgacha yagona qat’iy javob olingani yo‘q. Psixologlar shaxs faoliyati sabablarini tushuntiruvchi qator nazariyalar ishlab chiqishgan. Ulardan eng mashhurlari Zigmund Freyd va Abraxam Maslou nazariyalaridir. Ular iste‘molchi xulqi atvorini o‘rganishga mutlaqo turli tomonlardan yondoshilgan. Ularning nazariyalaridan turistik bozorni tadqiq etishda foydalanish mumkin [3,4,5].

Amerikalik psixolog-faylasuf, Brendon universiteti psixologiya professori A.Maslou (1908-1968) ham nima uchun konkret ehtiyoj kishini ma‘lum vaqtda harakat qilishga majbur etishini tushuntirishga urindi. Uning fikricha, inson ehtiyoji qandaydir tartibli tizimda past, eng oddiy, ibtidoiy ehtiyojdan yuqori, murakkabroq tashkil etilgan [5].

A. Maslou fikricha, fiziologik ehtiyojni me‘yorida qondirish kishida o‘zini saqlashga ehtiyojni faollashtiradi. Turizm sohasida bular ko‘p jihatdan turistik safarlar geografiyasini belgilaydi. Safarlarga talab ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqaror bo‘lgan hududlarda juda yuqori kuzatiladi [2.114.].

A.Maslou zinapoyali piramidalarning uchinchi pog‘onasidan boshlab endi bazaviy (tug‘ma) ehtiyojni emas, balki ikkilamchi yoki o‘zlashtirilgan ehtiyojni qarab chiqadi. Ularning ruyxati ijtimoiy, ba‘zan daxldor ehtiyojlar deb atalgan ehtiyojlarni ochadi. Ularning ikkinchi nomi mazkur guruh ehtiyojlari mohiyatini aniq ifodalaydi. Ular ma‘lum guruh odamlarga taaluqli intilishlarda, ijtimoiy o‘zaro harakatda, biri-biriga bog‘liq holda qo‘llab-quvvatlanishda namoyon bo‘ladi.

Kishilar sarf-xarajatlar bilan hayron qoldirib, nufuzli safarlarni sotib olishadi, ularning bunga imkoniyatlari bor. XIX asrda burjuaziya har qanday yo‘l bilan o‘zini ko‘rsatishga uringanida xuddi shunday bo‘lgandi. Bu hodisa bizning davrimizda ham kuzatilayapti. «O‘zini ko‘z-ko‘z qiluvchi» lar mablag‘larini katta xaridlarga sarflashayapti yoki butun jahonga mashhur kurortlar (BAAda, Bagam orollarida, Fransiyadagi Lazur qirg‘oqlari va boshq.) da qarorgohlar qurish uchun joy sotib olishmoqda. Dam olish sohasi individlarga keng erkin tanlash imkonini berayapti va ularga ishlab chiqarishda topishga erisha olmagan omadsizliklarini to‘g‘dirayapti.

Sayyohlarning jahon sivilizatsiyasi durdonalari bilan tanishishi, o‘zi uchun boshqa millatlar qadriyatlarini va an‘analarini kashf etish, tabiiy atrof – muhit go‘zalligidan bahra olish inson qalbi va salohiyatini boyitadi. Safar chog‘ida olingan taasurolar va bilimni odamlar o‘zining xilma-xil faoliyatida qo‘llaydi. Inson hamisha ongli ravishda bo‘lmasada, turizmga shaxs sifatida o‘zini ochish, qiziqishlarini qondirish usullarini topadi [11].

A.Maslou ehtiyoj sabablar nazariyasi ko‘pgina rivojlanagan davlatlar tadqiqotchilari ishlarida rivojlantiriladi. Ulardan ayrimlari uni dam olish sohasiga moslashtirishga intildilar. Angliyalik rekreolog (rekrologiya bu-) P.Pirs, A.Maslou piramidasiga o‘xshashlik bo‘yicha rekreatsion ehtiyojning besh darajasini ajratadi [8.117.].

P. Pirsga muvofiq rekreatsion xulq-atvori turistik tajribaning to‘planishi chog‘ida o‘zgarishga yuz tutadi. Ularni yanada ko‘proq yuksakroq pog‘onalik darajasi ehtiyojni harakatlantiradi.

«Bo'sh vaqtdan foydalanish» piramidada ikki qo'yi pog'onasi, ya'ni tegishli bazaviy rekreatsion ehtiyojni bo'shashtirish, hayajonga kelishni o'ziga jalb etadi. Ular bir-biriga qarama-qarshidir. Past darajadagidan farqli ravishda yuqoridagi uch yuksak ehtiyoj darajasi unchalik zid emas. Aksincha, ular ma'lum garmoniyaga erishishni ko'zlagan. Uchinchi va to'rtinchi pog'onalar (muomila va hurmat) odam jamiyat bilan uyg'unlikka erishishga intilgan, eng yuqori darajada (o'zlikni rivojlantirish) u o'zi bilan va atrof-muhit bilan kelishuvga o'tadi.

A. Maslou va P.Pirs motivatsiya nazariyalari amaliy qo'llanishini topmoqda [5, 6, 7]. Ular bozorni segmentlash uchun asos bo'ladi va turistik kompaniyalarga marketing strategiyasini ishlab chiqishda, turistlar tipologiyasini belgilashda foydalanish uchun xizmat qiladi [8.115.].

Mavsumiylik muammosi avvalgidek muhimligicha qolayotgan bo'lsada, turistik talab keyingi paytlarda ko'proq bir tekis taqsimlana boshladi. Bugungi kunda turistik safarlar butun yil davomida amalga oshirilayapti. Yigirmanchi asrning saksoninchi yillarida turistik talablarda yangi tendensiyalar paydo bo'ldi. Ular bir qator demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib, shuningdek zamonaviy odamning psixologiyasidagi o'zgarishlar kabi omillar bilan bog'langandir. Turistik talab kattaligi va xarakteriga jamiyatning demografik tarkibidagi o'zgarishlar va yangi rivojlanayotgan industrial mamlakatlarda, aholi ijtimoiy modeli katta ta'sir o'tkazmoqda. Ular quyidagilarga olib keladi: aholining keksayishi, nisbatan kechiroq nikohga kirish, yolg'iz odamlar ulushining oshishi, ishlovchi xotin-qizlar sonini ko'payishi, tug'ishni orqaga surilishi, farzandsiz oilalar sonini orta borishi va h.k.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda jamiyat yosh tarkibi o'zida «**demografik qo'ziqorin**» ni eslatadi. O'rtacha umr uzayishi va tug'ilish darajasining pasayishi, katta yoshdagi shaxslar ulushini yuqori bo'lishiga olib keldi [8.125.].

Turizmga daxldor boshqa o'zgarishlarda jamoat mehnat sohasiga xotin-qizlarni keng jalb etilishini ko'rsatish mumkin. Jahon bo'yicha barcha hududlarda turli ishlarda band xotin-qizlar soni ortib borayapti. Ularning ko'pchiligi o'z mavqieni ko'tarishga intiladi: omadli tadbirkorga aylanadi, davlat va tijoriy strukturalarda rahbarlik lavozimlarini egallaydi.

Demografik muhitda kechayotgan jarayonlar turizm bozorida ikki tendensiya haqida gapirish imkonini beradi. Ulardan biri – turistik xizmatlar potensial iste'molchilari doirasining kengayayotganligidir. Turistik harakatdagi bu yangi kategoriya shaxslarda sayohat qilishga istak va imkoniyat paydo bo'ladi. BTT ning yaqin yillardagi prognozlari bo'yicha yer yuzi aholisining 7 % xorijiy safarlarni amalga oshiradilar. Bu ulush muntazam o'sayapti, ammo hozircha juda kamtarona holicha qolayapti, ayniqsa Afrikada, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqda bu xalqaro turizm potentsiali kattaligidan dalolat beradi.

Ikkinchi tendensiya – sayohat qiluvchi shaxslarning keksayishi, ya'ni tashrif buyuruvchilar tarkibida keksa shaxslar salmog'ining ko'payishidir. Bu jahonning rivojlangan mamlakatlarida umumiy demografik vaziyat va ularda pensiya yoshining pasaytirilishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayapti. Ko'pchilik rivojlangan davlatlarda u nisbatan yuqori bo'lmagan darajada – 60-65 yosh qilib belgilanayapti. Ammo keyingi jahon iqtisodiy inqirozlarida og'ir moliyaviy ahvolga tushib qolgan ayrim

korxonalar haqli dam olishga nafaqat 60 yoshdagilarni, balki pensiya yoshiga yaqin qolganlarni ham jo‘nata boshladilar.

Hozirgi davrda keksa turistlar tajribali va yuksak didli sayohatchilar, turizm ular uchun nafaqat kundalik hayot tashvishlaridan xolos bo‘lish vositasi, balki olamni bilish, uning dinamikasi va ko‘p qirraligini belgilovchi omilga aylangan. Hayotga qiziqishlari so‘nmagan odamlar ko‘pincha qaltis sarguzashtlar qidirib safarlarga otlanadilar: Alp tog‘larida chang‘ida uchadilar, Kolorado kabi asov daryolarda suzadilar. Sahroi Kabirni kezib chiqadilar. Ular turli turistik tashkilotlar va firmalar xizmatlaridan foydalanib guruh bo‘lib safarlarga chiqishini ma‘qul kuradilar.

Hozirgi zamon ehtiyoj taraqqiyotida va ko‘psonli turistlar xohish istaklarida birorta firma, hatto u yirik turistik firma bo‘lsin, mavjud bozor segmentlarini to‘la qamrab ololmaydi. Amalda har bir turistik firma o‘zi uchun nisbatan kirish qulayroq va bozor talabining foydaliroq segmentini tanlaydi. SHu asosda u o‘z turistik mahsulotini shakllantiradi, narxlar belgilaydi, tegishli sotish va harakatlanish kanallaridan foydalanadi. Shunday qilib ixtisoslashgan turistik firma vujudga keladi. Hozirgi paytda demografik, ijtimoiy – iqtisodiy va talabning psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda turoperatorlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashuvini kuzatishimiz mumkin:

- Yoshlar turizmi (maktab o‘quvchilari, talabalar);
- Keksalar turizmi (pensionerlar, veteranlar);
- Ommaviy turizm (o‘rtacha daromadli kishilar uchun);
- Alohida e‘tiborli, elitar turizm (yuqori daromadli shaxslar uchun);
- Avtobus va kema turizmi;
- Ekskursiya – tamosha turizmi;
- Dam olish, davolanish, sport bilan shug‘ullanish maqsadidagi turizm;
- Kongress turizmi va boshqalar.

Xullas, psixolog turizm rivojlantirishda, turistik taklifni oshirishda, talabni yaxshiroq qondirishda muhim mutaxassis hisoblanadi, chunki mijozni ko‘nglini olish g‘oyat nazokatli ish hisoblanadi. Bu kasb egalari nozik psixologik o‘yinlardan foydalanib, turistik firmalar xodimi sifatida ehtiyot bo‘lib taklif qilinayotgan tovar afzalliklarini namoyish qiladi. Ortiqcha xiralik qilmasdan xaridorni o‘ziga rom etadi, uni uzil-kesil xulosa – oldi-sotdiga rozi bo‘lishga olib keladi. Psixologlar turli xil reklamalar, e‘lonlar, takliflar chaqiriqlarga qaraganda kishi do‘stiga, uning so‘zlariga ko‘proq ishonishini aniqlashgan. Ko‘cha-kuydagi turistik safarga da‘vat etuvchi reklama, e‘lon, shoirlardan ko‘ra turagentning mijoz huzuriga kelib, safarga taklif etishi ko‘proq samara beradi. Xulosa qilib aytganimizda, turizm sohasiga psixolog mutaxassislarni ko‘paytirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз”. Т.:Ўзбекистон, 2017.- 488-бет.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. - М.: КНОРУС, 2010г.- 458с.

3. Маслоу А. / Д. А. Леонтьев // Маниковский - Меотида. - М.: Большая российская энциклопедия, 2012. - С. 285. - (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. 2004-2017, т. 19). - ISBN 978-5-85270-353-8.
4. Мельвиль Ю.К. Чарлз Пирс и прагматизм. (У истоков амер. буржуазной философии XX в.). - М.: Изд-во МГУ, 1968. -500 с.
5. Пирс Ч. С. Избранные философские произведения. - М.: Логос, 2000. - 412 с. - ISBN 5-8163-0014-8.

КОРХОНАНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲОЛАТИ ВА БАНКРОТЛИК ТАҲЛИЛИ

Аҳмедов Камолхон И.ф.д проф., Усмонжонов Шоҳижаҳон

Андижон машинасозлик институти 3-босқич талабаси

“Тўловга қобилиятсизлик” (банкротлик) – “Тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида”ги қонунга (1998 йил 8 январдаги) мувофиқ ҳакамлик суди томонидан эътироф этилган ёки қарздор томонидан эътироф этилган қарздорнинг кредиторларнинг пул мажбуриятлари бўйича талабларини тўлиқ қондиришга қодир эмаслиги (ёки) мажбурий тўловларни тўлаш мажбуриятини бажариш [1]. Қонун ҳужжатларига мувофиқ юридик шахсларнинг банкротлик белгилари, агар улар томонидан тегишли мажбуриятлар бажарилган кундан бошлаб уч ой мобайнида бажарилмаса, кредиторларнинг талабларини қондира олмаслик ҳисобланади. Аввалги қонунда корхонанинг тўловга қобилиятсизлиги унинг кредиторлар (шу жумладан бюджет ва бюджетдан ташқари жамғармалар) талабларини қондиришга қодир эмаслиги, қарздорнинг ўз мол-мулкидан ошиб кетиши ёки баланс тузилмасининг қониқарсизлиги сабабли камайтирилди.

Шундай қилиб, янги қонунда банкротлик тўғрисида эълон қилиш субъектлари белгиланган - бу ҳакамлик суди ёки корхонанинг ўзи. Услубий материалларда қарздорнинг мол-мулки бўйича мажбуриятларини бажариш мезонлари ва баланснинг қониқарсиз тузилиши белгиланган аввалги қонундан фарқли ўлароқ, янги қонунда банкротлик мезонлари батафсил кўрсатилмаган.

Корхонанинг молиявий ҳолатини объектив баҳолаш банкротлик тартибининг зарур элементидир. Қонунга кўра, қарздорга тегишли бўлган мол-мулкнинг суд харажатларини қоплаш учун етарлилигини, ҳакамлик судлари раҳбарларига ҳақ тўлаш билан боғлиқ харажатларни, шунингдек, қарздорнинг молиявий ҳолатини тиклаш имкониятини аниқлаш мақсадида молиявий ҳолат таҳлили ўтказилади. тўлов қобилияти [1, п. 31]. ночор корхоналар балансининг қониқарсиз тузилмасини аниқлаш учун мезонлар тизими белгиланди:

- жорий ликвидлик (K1);
- ўз маблағлари ҳисобидан таъминот (K2);
- тўлов қобилиятини тиклаш коэффициенти (K3);

Ушбу коэффициентлар қуйидаги формулалар бўйича ҳисобланади [2]:

$$K1 = \frac{\text{Захиралар, харажатлар ва бошқа активлардаги айланма маблағлар}}{\text{Энг долзарб мажбуриятлар}}$$

$$K2 = \frac{\text{Ўз айланма маблағлари}}{\text{Захиралар, харажатлар ва бошқа активлардаги айланма маблағлар}}$$